

**BUXORO AMIRLIGIDA AMIR MUZAFFAR DAVRIDA SIYOSIY
JARAYONLAR.**

Isomiddin Ismoilovich Jo'rayev

Zarmed Universiteti Tarix kafedrası o'qituvchisi

1826-1860 yillarda amir Nasrullo Buxoroda hukmronlik qildi. Nasrulloxon davrida Buxoroning harbiy qudrati ancha oshdi. Shahrisabz va Hisor beklilari bo'ysundirildi, Qo'qon xonligiga tegishli katta hududlar bosib olindi. Tarixchi Ahmad Donish amir Nasrullo haqida shunday yozadi: "U vazmin, qo'rqmas, qattiqqo'l va zukko hukmdor edi. El va ulusda fitna chiqarishda nom chiqargan yo ilgari amirlarga nisbatan ko'rnamaklik qilganning barchasini jazoladi, o'z

tarafdorlarini siyladi". Buxoro mamlakatining siyosiy, ijtimoiy va xo'jalik hayotida murakkab jarayonlar bo'lib o'tdi. XIX asrning o'rtalariga kelib Buxoro amirligida markaziy hukumat kuchayib, uning hududlarida amirning hukumati joriy qilindi. Markaziy amir hukumatiga qarshi va bo'ysunmaydigan mulklar va ularning beku hukmdorlariga qattiq zarba berildi. Ikkinchidan, kuchayib borgan amirlik qo'shni davlatlar – Xiva va Qo'qon hududlariga bostirib kirib, ularning ichki ishlariga faol aralasha boshladi. Natijada, uch xonlik o'rtasidagi nizo va urushlar bu davlatlarning har birini zaiflashtirdi. Uchinchidan, bu tarixiy davrda Rossiyaning bosqini boshlandi va bosib olingach talon-taroj ishlari amalga oshirildi. O'zbek xonlari, jumladan, Buxoro hukmdorlari ham qo'shin va qurol yarog' bobida tamomila xotirjamlikka berilgan edi deyish to'g'ri bo'lmaydi. Rossiya bosqini xavfi sezila boshlaganda, hatto Xiva xoni Olloqulixon amir Nasrulloga bu yo'lda ittifoqlashish taklifini ham oraga solgan edi. Amir Nasrullo harbiy sohada ma'lum islohotlarga qo'l uradi-da, ora yo'lda qolib ketadi. Buning ma'nosi shulki, u o'zining 34 yillik saltanati davomida xonlikdagi ichki nizolardan qutila olmadi".

Bu davrga kelib, ya'ni 1860-yilda Buxoro taxtiga amir Muzaffar o'tiradi. Mang'itlar sulolasidan bo'lgan bu amirning otasi Nasrulloxon davrida Karmanaga hokimlik qilgan edi. Amir Nasrullo vafotidan so'ng, Muzaffar Buxoro taxtiga o'tirdi. Otasi tomonidan Karmanaga surgun qilingan kishilarni Buxoroga qaytarib, yuqori lavozimlarni beradi. 1863-,1865-yillarda Markaziy hokimiyatga bo'ysunishni istamayotgan Hisor, Shaxrisabz, Darboz, Ko'lob, Baljuvon beklilari va Qo'qon ustiga yurish qilib, ularning qarshiligini yengadi. Mallaxon tomonidan taxtdan tushirilgan Qo'qon xoni Xudoyorxon Buxoroga qochib kelganida xonlik taxtini egallashi uchun unga 1861-yilda harbiy

yordam beradi. Muzaffarning hukmronlik davri Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklariga qarshi harbiy harakatlari kuchaygan davrga to'g'ri keladi. Rossiya bilan bo'lgan kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan bartaraf etishda umidini uzmay, u Najmiddinxo'ja boshliq elchilarni 1865-yil iyulida Peterburgga jo'natadi. Biroq, ko'zlangan maqsadga erishilmay, ikki o'rtada harbiy harakatlar boshlanadi. Amir Muzaffar qo'shini bilan general Romanovski boshchiligidagi Rossiya harbiy kuchlari o'rtasidagi dastlabki to'qnashuv 1866-yil 8-mayda Jizzax bilan O'ratepa o'rtasidagi Enjarda bo'lib, unda Buxoro qo'shini mag'lubiyatda uchragan. Amir Muzaffar Muftiy Muhammad Porso boshchiligidagi elchilarni Afg'oniston va Hindiston orqali yordam so'rab, Istanbulga yuborsa ham rad javobini olgan. 1868-yil 2-3-iyunda Zirabuloq jangida mag'lubiyatga uchragach, 1868-yil 23-iyunda Samarqandda imzolangan Rossiya-Buxoro sulh shartnomasiga ko'ra, Buxoro amirligi Rossiyaga tobe bo'lib qolgan.

Amir Muzaffar davrida Buxoro amirligining Rossiyaga qaramligi kuchayishi bilan bir qatorda shia oqimi vakillarining ta'siri ham ortgan. Amir Muzaffar mamlakatni 1885-yil 12-dekabrgacha bo'lgan davrda boshqardi.

Amir qo'shinining jangovarlik darajasi past edi. Askarlar harbiy mashqlarga nisbatan ko'proq mehnat bilan band bo'lardi. Sipohlikka 15 yoshdan 70 yoshgacha erkaklar olinardi, qo'shin safida keksayib qolganlar anchagina edi. Amirlikning yillik daromadi 2 mln 300 ming so'm bo'lgani holda, uning 1 mln. 300 ming so'mi qo'shinni saqlashga sarflanardi. Oziq-ovqat yetishmasligidan sipohlar qochardi. Amirning qo'shini muntazam bo'lmay, zaruriyat bo'lganda to'planardi, ularni to'plash qiyin kechardi. Hatto "Amirning g'ulomlaridan biri bo'lgan Yoqub qo'shbegini, garchi u umri davomida miltiq ovozi eshitmagan bo'lsa-da, lashkarboshi etib tayinlashgan". Bu amirlikning zaif omillaridan biri edi.

Ma'lumki, Buxoro amirligi saroyida amirning voyaga yetmagan farzandlari tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi maxsus otaliq lavozimi bo'lgan. Odatda, valiahdshahzodaga biror-bir viloyat suyurg'ol sifatida berilgan va u o'z otaliqi bilan uning ustidan hukmronlik qilgan. Taxt vorisiga, an'anaga ko'ra, Balx shahri va uning atrofini o'rab turgan viloyat bilan birga berilgan. Shu narsa diqqatga sazovarki, otaliqqa shahzodaning davlat ishlari bilan birga yaxshigina umumiy ma'lumot olishi, ayni paytda, harbiy san'ati va jismoniy mashq turlarini ham yetarli darajada egallashi uchun g'amxo'rlik qilish vazifasi yuklatilgan. Rossiya Buxoro o'rtasida 1868-yil 23-iyun kuni imzolangan shartnoma tenglik shartnomasi emas, balki o'z xarakteri bilan ko'proq ultimatumga o'xshardi. Buxoro amiri majburlikdan imzolagan bu shartnoma 2 yil oldin amir tomonidan imzolanmagan shartnomadan albatta

tubdan farq qilardi. Yangi taklif etilgan shartnomada uchta qo'shimcha bo'lim bo'lib ular quyidagilardan iborat edi: 1. Samarqand va Kattaqo'rg'on okruglari Rossiyaga qo'shib olinsin; 2. Rossiya va Buxoro hududini chegaralash; 3. Chegaralanish ishlarini xalqaro komissiyaga tavsiya etish. Shu davrdan boshlab Rossiya-Buxoro munosabatlarida yangi bir davr boshlandi. Juda ko'p holatlar amirni Rossiyaga vassal munosabatda bo'lishga majbur etdi. Bu holatlarga amirning xonlikda uning obro'yi tushib ketganligi, u xonlikni boshqarishda ruslarga tayanayotgani, beklarni unga bo'ysunmay, mustaqil bo'lishga intilayotgani, diniy ulamolarning uning noroziligi sabab bo'layotgan edi. Endi Jizzaxdan tortib Kattaqo'rg'onga qadar bo'lgan hududlar rus hukumati tobeligiga o'tdi. Rossiya-Buxoro o'rtasidagi janglarda zabt etilgan hududlar hisobiga Turkiston general-gubernatorligining Samarqand viloyati tashkil etildi. Podsho Rossiyasi O'rta Osiyoni mol sotish bozori, xom ashyo manbai deb bilar edi. 1866-yil rus qo'shinlari Buxoro amirligi chegaralariga bostirib kirdi va Xo'jand (24 may), O'ratepa (2 oktabr), Jizzax (18 oktabr) shaharlarini ishg'ol qildi. Istilo etilgan yerlarni boshqarish uchun 1867-yil Turkiston general – gubernatorligi tashkil etildi. 1868- yil 2-may kuni general Kaufman boshchiligidagi rus qo'shinlari Samarqandni ishg'ol qildi. Iyun oyida Buxoro amiri Muzaffar qo'shinlariga Zirabuloq yaqinida so'nggi qat'iy zarba berildi. Amir general – gubernatorga murojaat qilib, sulh tuzishni so'radi. 1868-yilning 23-iyunida ikki o'rtada shartnoma imzolandi. Rus qo'shinlari bosib olgan yerlar podsho Rossiyasi ixtiyoriga o'tdi; Buxoro amiri mustaqil tashqi siyosat yurgizish huquqidan mahrum bo'ldi; amir rus podshosiga 500 ming so'm tovon to'ladi. 1873-yil 28-sentabrda mazkur shartnomaga qo'shimchalar kiritilib, amirlikning Rossiyaga qaramligi yanada kuchaydi. Natijada amirlik yerlarining uchdan bir qismi podsho Rossiyasi ixtiyoriga o'tdi; Xo'jand, O'ratepa, Panjikent. Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlaridan tortib Zirabuloqqaqacha bo'lgan yerlar, Sharqiy Buxoroda esa Shug'on, Vohon, Ro'shon viloyatlari, ayniqsa Zarafshon daryosi yuqori havzasining qo'ldan ketishi amirlikdagi xalqlarni asosiy hayot manbai – suvdan mahrum etdi, bu hol Buxoro amirligini Rossiyaga iqtisodiy jihatdan qaramligini yanada oshirdi.

Davlatlarning har birini zaiflashtirdi. Uchinchidan, bu tarixiy davrda Rossiyaning bosqini boshlandi va bosib olingach talon-taroj ishlari amalga oshirildi. O'zbek xonlari, jumladan, Buxoro hukmdorlari ham qo'shin va qurol-yarog' bobida tamomila xotirjamlikka berilgan edi deyish to'g'ri bo'lmaydi. Rossiya bosqini xavfi. Amir Muzaffar hukmronligi davrida (1880-1885 yillar) amirlikning xalqaro aloqalari yangi bosqichga ko'tariladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирза Салимбек Тарих-и Салими(источник по истории Бухарского эмирата). Перевод с передсково Н. Норкулов: Тошкент.Академия. 2009

2. Avaz Muhammad. Attor Ho'qandiy. Tarixi jahonnomayi (Sh.Vohidov tarjimasi)// Sharq yulduzi, 1991, №3 B.130.

3. Tosheva Sh.. Ahmad Donish va uning tarixiy risolasi.//Buxoro mavjlari. Buxoro, 2007. №3, -B.37

4. Sodiqov M. "amir nomalari", Ishonch, Buxoro. 2000.-B.56.

5. Mirza Abdul Azim Somiy Tarixi salotini mang'itiya -M.: Viter. Liter. 1962. –С.46.

6. Jo'rayev Isomiddin Ismoilovich, Bukhara-Russian Relations during the Period of Amir Abdulahad and Amir Olimkhan. American Journal of Public Diplomacy and International studies.2024